

"O'zkimyosanoat" AJ "Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi"da ishtirok etmoqda

// 14.12.2021

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoqlararo-sanoat-yarmarkasi>



Bugun "O'z ekspomarkaz"da "Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi" o'z faoliyatini boshladi. Yarmarkada "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati ham ishtirok etmoqda hamda tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar namoyish etilmoqda.

"Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi"ning birinchi kunida eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ko'rgazmalari va ishlab chiqarish loyiha takliflari va sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida taqdimotlar namoyish etildi. Jumladan, kunning ikkinchi yarmida "O'z kimyosanoat" AJ tomonidan "Kimyo sanoatining mahalliy lashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish dasturlari" yuzasidan taqdimoti o'tkazildi.

Shuningdek, ko'rgazmada namoyish etilgan va import qilinayotgan mahsulotlar namunalarini tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'zlashtirish bo'yicha B2B shaklida muzokaralar olib borish va hamkorlik bitimlari tuzish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi Elektron kooperatsiya portali mutaxassisarlari tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishi ko'zda tutilgan.

"Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi" joriy yilning 18 dekabriga qadar davom etadi.

"O'z kimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

